

**O'ZBEKISTONNING JAHON SAVDO TASHKILOTIGA A'ZO BO'LISH
JARAYONI VA IQTISODIY OQIBATLARI**

Abduraxmonov Shohruh Sherzod o'g'li

Alfraganus universiteti

*Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy
munosabatlar yo'nalishi 2-bosqich talabasi*

Xalmatjanov Farxod Maxammatjanovich

Alfraganus universiteti

Iqtisodiyot fakulteti katta o'qituvchisi

Annotatsiya: *Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasining Jahon savdo tashkilotiga (JST) a'zo bo'lish jarayoni, uning asosiy bosqichlari hamda iqtisodiy oqibatlari tahlil etilgan. JSTga qo'shilishning mamlakat iqtisodiyotiga ta'siri, milliy ishlab chiqarishning raqobatbardoshligini oshirishdagi roli, tashqi savdo va investitsiyalar oqimidagi o'zgarishlar ilmiy nuqtai nazardan yoritilgan. Shuningdek, O'zbekistonning JSTga qo'shilishidan kutilayotgan ijobiy natijalar bilan bir qatorda, yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammolar ham tahlil qilingan va ularni bartaraf etish bo'yicha bir nechta takliflar ham keltirib o'tilgan.*

Kalit so'zlar: *Jahon savdo tashkiloti, O'zbekiston iqtisodiyoti, integratsiya, tashqi savdo, investitsiya, eksport, import, proteksionizm, erkin savdo, raqobat.*

Annotation: *This article analyzes the process of the Republic of Uzbekistan's accession to the World Trade Organization (WTO), its main stages, and economic consequences. The impact of joining the WTO on the national economy, the role of enhancing the competitiveness of domestic production, as well as changes in foreign trade and investment flows are discussed from a scientific perspective. In addition, both the expected positive outcomes of Uzbekistan's WTO membership and the potential challenges are examined, along with several recommendations to address them.*



Keywords: *World Trade Organization, Uzbekistan's economy, integration, foreign trade, investment, export, import, protectionism, free trade, competition.*

Аннотация: *В данной статье анализируется процесс присоединения Республики Узбекистан к Всемирной торговой организации (ВТО), его основные этапы и экономические последствия. Рассмотрено влияние вступления в ВТО на национальную экономику, роль в повышении конкурентоспособности отечественного производства, а также изменения во внешней торговле и инвестиционных потоках с научной точки зрения. Кроме того, освещены как ожидаемые положительные результаты членства Узбекистана в ВТО, так и возможные проблемы, а также представлены некоторые предложения по их устранению.*

Ключевые слова: *Всемирная торговая организация, экономика Узбекистана, интеграция, внешняя торговля, инвестиции, экспорт, импорт, протекционизм, свободная торговля, конкуренция.*

Kirish: Globalizatsiya va xalqaro iqtisodiy integratsiya jarayonlari jadal sur'atlar bilan rivojlanayotgan hozirgi davrda har bir davlat o'zining tashqi iqtisodiy aloqalarini kengaytirishga intilmoqda. Jahon savdo tashkiloti (JST) dunyo iqtisodiyotining eng muhim institutlaridan biri sifatida alohida o'rin tutadi. Bugungi kunda JSTga 160 dan ortiq davlat a'zo bo'lib, ular jahon tovar va xizmatlar savdosining 95 foizidan ortig'ini amalga oshirmoqda. Shunday ekan, JSTga qo'shilish har qanday davlat uchun jahon iqtisodiy tizimiga yanada chuqurroq integratsiyalashuv, xalqaro maydonda o'z pozitsiyasini mustahkamlash va savdo-sotiq imkoniyatlarini kengaytirish imkonini beradi.

O'zbekiston mustaqillikka erishganidan buyon o'z iqtisodiyotini modernizatsiya qilish va jahon iqtisodiy tizimiga integratsiyalashuv yo'lida qator islohotlarni amalga oshirib kelmoqda. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev o'z nutqlarida JSTga a'zo bo'lish mamlakat uchun strategik maqsad ekanini, bu jarayon milliy ishlab chiqarishning raqobatbardoshligini oshirishga, eksport salohiyatini



kengaytirishga va investitsiyalarni ko'paytirishga xizmat qilishini ta'kidlab kelmoqda.¹

Shuni ham alohida ta'kidlash joizki, JSTga qo'shilish nafaqat iqtisodiy imkoniyatlarni kengaytiradi, balki bir qator majburiyatlarni ham yuklaydi. Chunki bu jarayon xalqaro savdo normalariga mos ravishda milliy qonunchilikni isloh qilishni, intellektual mulk huquqlarini himoya qilishni, bojxona jarayonlarini soddalashtirishni va raqobat muhitini kuchaytirishni ham talab etadi. Shu bois, JSTga a'zo bo'lish O'zbekiston iqtisodiyotini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqishi bilan birga, qisqa muddatda ayrim qiyinchiliklar ham keltirib chiqarishi mumkin.

Asosiy qism: O'zbekiston JSTga a'zo bo'lish uchun 1994-yilda ariza topshirgan edi. Biroq o'sha davrda mamlakat iqtisodiyoti yopiq modelga asoslanganligi, milliy qonunchilikning xalqaro normalarga to'liq mos emasligi va institutsional imkoniyatlarning cheklanganligi tufayli muzokaralar uzoq vaqt davomida sust kechdi. 2017-yildan boshlab mamlakatda keng ko'lamli iqtisodiy islohotlarning boshlanishi bilan JSTga a'zo bo'lish masalasi qayta kun tartibiga chiqdi. Shu davrdan boshlab O'zbekiston JST ishchi guruhlar bilan faol muzokaralar olib bormoqda va 2020-yildan boshlab jarayon yangi bosqichga ko'tarildi.² JST mamlakatimizning to'qimachilik sanoati, meva-sabzavot mahsulotlari va qishloq xo'jaligi tarmoqlari orqali jahon bozoriga kengroq kirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Shuningdek, JST a'zoligi xorijiy investitsiyalarni jalb etishda ham muhim rol o'ynaydi. Chunki investorlar uchun eng muhim omillardan biri bu – xalqaro normalarga mos shaffof qonunchilik va kafolatlangan huquqiy muhit hisoblanadi. JST talablariga rioya etish O'zbekistonda investitsiya muhitining yanada yaxshilanishiga xizmat qiladi. Natijada, xorijiy investorlar mamlakatimizdagi energetika, kimyo, mashinasozlik va boshqa tarmoqlarga ko'proq sarmoya kiritishi mumkin.

¹ Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2022.

² WTO Official Documents. Accession of Uzbekistan: Working Party Reports. – Geneva, 2023.



Biroq JSTga qo'shilishning ayrim qiyinchiliklari ham mavjud. Avvalo, mahalliy ishlab chiqaruvchilar kuchli raqobat sharoitiga duch keladilar. Chunki JST qoidalariga ko'ra, proteksionistik siyosat, yuqori bojxona to'lovlari va importni cheklash kabi usullarni qo'llash imkoniyati cheklangan bo'ladi. Natijada, ayrim milliy korxonalar, ayniqsa kichik va o'rta biznes sub'ektlari qisqa muddatda raqobatbardosh bo'lishda qiyinchiliklarga duch kelishi mumkin.³ Xalqaro tajribadan ma'lumki, JSTga qo'shilgan davlatlar dastlab ayrim qiyinchiliklarni boshdan kechirgan. Masalan, Qozog'iston 2015-yilda JSTga a'zo bo'lgach, dastlabki yillarda import mahsulotlari hajmi sezilarli darajada oshib, mahalliy ishlab chiqaruvchilarga bosim kuchaydi. Ammo keyinchalik texnologiyalar joriy etilishi, xorijiy investitsiyalar oqimi va eksport imkoniyatlarining kengayishi natijasida iqtisodiy o'sish barqarorlashdi.⁴ O'zbekiston JST talablariga moslashish uchun so'nggi yillarda qator muhim islohotlarni amalga oshirdi. Jumladan, bojxona tizimining raqamlashtirilishi, litsenziyalash tartibining soddalashtirilishi, sanitariya va fitosanitariya normalarining xalqaro standartlarga moslashtirilishi shular jumlasidandir. Bundan tashqari, intellektual mulk huquqlarini himoya qilish borasida ham yangi qonunchilik hujjatlari ishlab chiqildi. Bu esa JST talablariga yaqinlashishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Shuni alohida qayd etish kerakki, JSTga a'zo bo'lish faqat iqtisodiy natijalar bilan cheklanmaydi, balki siyosiy va huquqiy jihatdan ham muhim ahamiyatga ega. Chunki bu jarayon O'zbekistonning xalqaro imijini mustahkamlaydi hamda tashqi siyosatda ham ishonchni oshiradi va mamlakatni global iqtisodiy tizimning ajralmas qismiga aylantiradi.

Xulosa: Yuqorida keltirilgan tahlillardan ko'rinib turibdiki, O'zbekistonning JSTga a'zo bo'lishi mamlakat uchun katta iqtisodiy imkoniyatlar yaratadi. Bu, avvalo, eksport salohiyatini oshirish, investitsiya muhitini yaxshilash, milliy ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va xalqaro savdo tizimiga chuqur integratsiyalashuvni ta'minlaydi. Shu bilan birga, qisqa muddatda ayrim

³ Qosimov B. Jahon savdo tashkiloti va O'zbekistonning integratsiya jarayoni. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2021.

⁴ WTO. Kazakhstan Accession Report. – Geneva, 2015.



tarmoqlarda raqobatning kuchayishi, mahalliy ishlab chiqaruvchilarning qiyinchiliklarga duch kelishi kabi salbiy holatlar ham yuzaga kelishi mumkin. Taklif sifatida shu ham aytib o'tish joizki, davlat JSTga qo'shilish jarayonida mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha maxsus dasturlarni amalga oshirishi lozim. Bu dasturlar soliq imtiyozlari, arzon kreditlar va innovatsion faoliyatni rag'batlantirishni o'z ichiga olishi kerak.

Shunday qilib, JSTga a'zolik O'zbekiston iqtisodiyotini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqadi. Biroq bu imkoniyatlardan samarali foydalanish uchun izchil islohotlarni davom ettirish, milliy manfaatlarni himoya qilish va raqobatbardosh iqtisodiyotni shakllantirish zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2022.
2. WTO Official Documents. Accession of Uzbekistan: Working Party Reports. – Geneva, 2023.
3. Qosimov B. Jahon savdo tashkiloti va O'zbekistonning integratsiya jarayoni. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2021.
4. WTO. Kazakhstan Accession Report. – Geneva, 2015.